



UNIVERSAL XALQARO ILMIY JURNAL

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljurnal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 4

Published: 16.04.2025
<https://universaljurnal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR
CROSSREF (OAK BAZA)
ZENODO
OPEN AIRE
EUROPUB
RESEARCHGATE (OAK BAZA)
SJIF

ISH VA SHAXSIY HAYOT MUVOZANATI - PEDAGOGLARDA STRESSNI KELTIRIB CHIQRUVCHI OMILLARDAN BIRI SIFATIDA

Vahobova Durdona To‘lanboy qizi., Umriniso Shobduraximova

Andijon davlat pedagogika instituti

Uzbekistan

durdona214@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagoglar orasida eng keng tarqalgan dolzarb masalalardan biri haqida so‘z yuritilgan. Ya’ni, pedagoglarning ish va shaxsiy hayotidagi o‘zaro muvozanatni saqlab, ham ishda, ham oilada ideal obrazda faoliyat olib borishga harakat qilishi va ba’zi bir to‘siqlar sababli stressga berilishi haqida qisqacha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ish va shaxsiy hayot muvozanati, pedagogik stress, burn-out, emotsional charchoq, ruhiy salomatlik, stressni boshqarish, shaxsiy hayot muvozanati, kasbiy stress, o‘qituvchi salomatligi, stressorlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается один из наиболее распространенных актуальных вопросов среди педагогов. То есть кратко описывается, как педагоги стараются поддерживать баланс между работой и личной жизнью, действовать в идеальном образе как на работе, так и в семье, и поддаются стрессу из-за некоторых препятствий.

Ключевые слова: баланс работы и личной жизни, педагогический стресс, выгорание, эмоциональная усталость, психическое здоровье, управление стрессом, баланс личной жизни, профессиональный стресс, здоровье учителя, стрессоры.

Abstract: This article discusses one of the most common pressing issues among educators. That is, it is briefly explained that educators try to maintain a balance in their work and personal life, to work in an ideal image both at work and at home, and to succumb to stress due to some obstacles.

Keywords: work-life balance, pedagogical stress, burnout, emotional fatigue, mental health, stress management, personal life balance, professional stress, teacher health, stressors.

Language: Uzbek

Citation: Vahobova , D., & Umriniso , S. (2025). WORK-LIFE BALANCE AS ONE OF THE FACTORS CAUSING STRESS IN EDUCATORS. Universal International Scientific Journal, 2(4), 107–112. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1499>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15229961>

Copyright © 2025 by author(s) and Scientific Research Publishing Inc. This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0). <http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimi o‘zgarayotgan sharoitlarda pedagoglardan yuqori darajadagi professionallik, emotsional barqarorlik va ishga to‘liq sodiqlik talab qilinmoqda. Bu esa, ko‘plab o‘qituvchilarni stress holatiga olib kelmoqda. Ayniqsa, ish va shaxsiy hayot o‘rtasidagi muvozanatni saqlashdagi qiyinchiliklar – pedagoglar stressining asosiy omillardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada aynan shu muammoning tahlilini qilamiz. Bilamizki, pedagoglar – ayniqsa maktab va kollej, litsey o‘qituvchilari – ko‘plab majburiyatlar va cheklangan resuslar sharoitida ishlaydilar. Ular uchun ish va shaxsiy hayot o‘rtasidagi muvozanatni saqlash tobora

murakkablashmoqda. Bu esa stress darajasini oshiradi, ishdan qoniqmaslikni keltirib chiqaradi, ruhiy charchoq va professional “burn-out” holatiga olib keladi.

Hozirgi tezkorlik davr-talabi bo‘lgan bir vaqtda pedagog xodimlardan o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashish davr-talabi ekanligini hisobga olgan holda, pedagoglardagi stresslar va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni sanab o‘tishdan oldin ish va shaxsiy hayot muvozanatining buzilishi nima ekanligiga aniqlik kiritib olsak. Ish va shaxsiy hayot muvozanati – bu shaxsning ishdagi majburiyatlari va shaxsiy hayotidagi ehtiyojlarini bir vaqtning o‘zida qondirish holatidir. Agar ish shaxsiy vaqt va resurslarni haddan ortiq

egallab olsa, bu muvozanat buziladi va stress kuchayadi.

Pedagoglardagi stresslar va ularni keltirib hiqaruvchi omillar va ularning tahlili.

- Ish yuklamasining ko'pligi. Bilamizki pedagoglarning faoliyati murakkabdir. Negaki, ular dars soatlaridan tashqari hisobotlar tayyorlaydi, o'quvchilardan sinov testlarni oladi, tadbirlar o'tkazadi, nazorat hujjatlarini tayyorlaydi. Bundan tashqari hozirgi texnologiyalar zamonida deyarli hamma narsa elektron shaklda tashkil qilingan va bu ko'plab pedagoglarda stressni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

- Emotsional yuklama. Har kuni o'quvchilar, ota-onalar va rahbariyat bilan ishlash ham pedagoglarni charchatadi.

- Tashqi bosim. Ish joyidagi vazifalardan tashqari bo'lgan topshirilar jumladan, reyting, attestatsiya, tekshiruvlar, natija talabi kabilar ham o'qituvchi-pedagoglarning kasbiy zo'riqishiga olib keladi.

- Shaxsiy hayotga e'tibor yo'qligi. Ish tufayli oila, farzandlar, dam olishga vaqt ajratilmasligi ham pedagoglarda stressni keltirib chiqaradi.

- Surunkali perfektsionizm. Bu tushuncha doimiy haddan tashqari ishlash belgisi bilan bog'liq bo'lib, ko'plab kasblarda surunkali mukammallik odamlarni yengib, ularni norozilik holatlariga olib kelishi mumkin. Doktor Elaine Foster (salomatlik psixologi,) perfektsionizmni "faqat yuqori standartlar

haqida emas, balki, charchashga olib boruvchi yo'l, vaqt va umidlarni real tarzda boshqarishda katta to'siqdir" deya ta'kidlagan.

- Muvaffaqiyatsizlik qo'rquvi. Bu to'siq bevosita bo'sh vaqtlarda bezovtalanish belgisi bilan bog'liq. Kutilgan natijani bermaslik haqidagi doimiy tashvish, ayniqsa qattiq nazorat ostida bo'lgan muhitda, ish xavfsizligi tashvishini kuchaytiradi va haqiqiy dam olish va tiklanishga to'sqinlik qiladi.

- Samarasiz rejalashtirish. Ko'pincha, ijtimoiy vaqtni o'tkazib yuborish sifatida namoyon bo'ladi, samarasiz rejalashtirish belgilangan muddatlarni bajarish uchun reaktiv shoshilishga olib keladi, natijada nuqsonli ish va stress kuchayadi. Bu, odatda, vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan vaqtni kam baholagandan yoki kechiktirishdan kelib chiqadi.

- Ish joyidagi tartibsizlik. Ko'pincha, pedagoglarning dam olish vaqtida ham ishlashi tartibsiz ish muhiti va stress darajasini sezilarli darajada oshirishi mumkin, bu esa samarali tartibni o'rnatishni qiyinlashtiradi.

Stressni o'rganish bo'yicha Amerika institutining ma'lumotiga ko'ra, kasbiy faoliyat orqali orttirilgan stress hamda yurak xuruji o'rtasidagi bog'liqlik shu qadar kattaki, Nyu-York, Los-Anjeles va boshqa bir necha shaharlarda polisiya xodimlarining xuruji orttirilgan jarohat bilan tenglashtirilmoqda. Hamda "kun davomida ishlaydigan ayollar erkaklarga

nisbatan katta stressga yo‘liqadi” degan stereotiplar ham mavjud. Sababi ular ishdan so‘ng uy yumushlari va farzandlarga qarash bilan mshg‘ul bo‘lishadi . Haqiqatdan ham bugungi kun ta‘lim tizimiga ayniqsa, maktablarga nazar tashlaydigan bo‘lsak deyarli xodimlarning 80-90% ni ayollar tashkil qiladi. Ularning ish vaqtidan tashqari uydagi qo‘shimcha vazifalari ham yetarlicha charchatadi va kasbiy zo‘riqishga, sog‘ligidagi bir qancha muoammolarni orttirib olishiga olib keladi.

Hozirgi kunda jamiyatning talablari maktablarda kun sayin o‘sib bormoqda va bu vazifalarni hal etish pedagogning vazifasiga bog‘liq. Endi esa pedagogning asosiy vazifalari to‘g‘risida gaplashib o‘tsak. Pedagogning eng birinchi vazifalari:

- kasbiga o‘zini bag‘ishlashdir. U qanchalik o‘quvchilarni yaxshi ko‘rsa va o‘zining o‘qitayotgan fanini yaxshi ko‘rsa undan haqiqiy ilmu-toliblar yetishib chiqadi.

- kasbiga bo‘lgan mas‘uliyat.

- bolalarga ma‘rifat va ma‘naviyat tushunchalarini o‘rgatish.

- o‘zini-o‘zi nazorat qilish , sabr , chidamlilik va qat‘iyatlik.

Bulardan tashqari hozirgi kunda ustozlarga qo‘yiladigan talablar ham mavjud. Bular:

- talabalarni ruhiy mustahkam va malakali kadr sifatida yetishtira oladigan pedagog.

- keng qamrovli bilimga ega bo‘lish.

- yaxshi pedagogik va psixologik bilimga ega bo‘lish.

- oxirgi yangiliklardan xabardor bo‘lish va o‘z ustida davomli ishlash.

- o‘z o‘qitishiga kreativ yondoshish.

- bolalarni va ularning ichki dunyosini tushunish.

- pedagogik texnikalarga ega bo‘lish.

Yuqorida aytib o‘tilgan talablar hamda pedagog ega bo‘lishi kerak bo‘lgan ko‘nikmalar pedagogni haqiqiy ma‘noda professional pedagoglik darajasiga yetkazishi bilan birgalikda undan katta kuch talab qiladi. Ushbu ko‘nikmalarni egallashga qiynalgan har qanday pedagog kasbiy zo‘riqishga duch kelishi ham mumkin. Sababi ko‘plab pedagoglar kasbiy faoliyat bilan birgalikda oilaviy munosabatlar va oiladagi vazifalarini muvozanatda ushlashda bir qancha to‘siqlarga uchraydilar. Bunday to‘siqlarni bartaraf etish uchun ularga amaliy tavsiyalarni keltirib o‘tamiz:

- Ertalabki tartib. Har qanday inson tartibga rioya qilsagina ishida samarali natija bo‘ladi. Kunni qisqa jismoniy mashqlar yoki yugurish bilan boshlash inson organizimi uchun juda foydalidir. Bu tanani uyg‘otish va kayfiyatni yaxshilashga, stressni kamaytirishga, kun davomida energiya bilan yurishga yordam beradi.

- Qisqa meditatsiya. Kunimizni qisqa meditatsiya bilan boshlash nafaqat ishlovchi xodimlar balki uy bekalari uchun

ham foydalidir. Sababi u ongni tinchlantirish va kunni samarali boshlash uchun bizga katta kuch va motivatsiya beradi.

- Rejalashtirish. Ish vazifalari, shaxsiy qiziqishlar va dam olishni o'z ichiga olgan mukammal reja bizni vaqtni noto'g'ri sarflash va ko'p energiya ketkazish orqali stressga berilishimizda yuzaga keladigan qiyin vaziyatlarni oldini oladi. Hamda ishdan tashqari o'zimiz va yaqinlarimiz uchun vaqt ajratishga imkon yaratadi.

- Vaqt ajratish. Bo'sh vaqtimizda ish bilan bog'liq vazifalardan uzoqlashish, ish kuni va dam olish vaqti o'rtasida aniq chegaralarni belgilab olishimiz, ishda chala qolgan vazifalarni uyda to'ldirishni rejalashtirmasligimiz bizni stressli vaziyatlardan qutqaradi. Hamda bizga zavq bag'ishlaydigan hobbi yoki qiziqishlarimiz uchun ham vaqt ajratishini unutmasligimiz kerak.

- Texnologiyadan dam olish. Ijtimoiy tarmoqlar va gadjetlar oldida o'tkaziladigan vaqtni imkon qadar cheklashimiz sog'ligimiz uchun foydalidir. Texnologiyalardan muntazam ravishda tanaffus qilish diqqatni to'plashni yaxshilaydi va to'liq dam olishga yordam beradi.

- Vazifalarni delegatsiya qilish. Vazifalarni taqsimlashni imkon qadar odat tusiga aylantirishimiz kerak. Vazifalarni taqsimlash - muhim ishlar uchun vaqt ajratish va hayotda muvozanatni

ta'minlashga yordam beradigan eng to'g'ri yo'ldir.

- "Yo'q" deyishni o'rganish. Maqsad va vazifalarimizga to'g'ri kelmaydigan topshiriqlarni bajarishdan bosh tortishdan uyalmaslik kerak. Chunki, chegaralarni belgilash vaqtimizni muhim va maroqli daqiqalar uchun ajratishga yordam beradi.

- Jismoniy faollik. Muntazam ravishda jismoniy mashqlar, sport bilan shug'ullanish nafaqat sog'liqni saqlashga ko'maklashadi, balki energiya va kayfiyatni ham oshiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz joizki, bugungi kunda pedagog kasbiga talab kuchayib bormoqda. Sababi, bolaga ta'lim va tarbiya berishdek mas'uliyatli kasbning vazifalarini to'laqonli bajarish har qaysi pedagogning ham qo'lidan kelavermaydi. Bunday kasbda ko'proq sabr toqatli, kasbini sevadigan, tirishqoq insonlarga faoliyat olib borishadi. Negaki, ular ish va shaxsiy hayot o'rtasidagi muvozanatni saqlashni bilishadi. Ish jarayonida ham stressli vaziyatlarga deyarli duch kelishmaydi. Ammo, rahbariyat tomonidan beriladigan bosim va haddan ortiq talablarining ularga ko'rsatadigan ba'zi bir qo'shtirnoq ichidagi munosabati ularni stressga berilishiga sabab bo'lyapti desak mubolag'a bo'lmaydi. Hozirda ustozlarga rahbariyat tomonidan beriladigan bosim va talabalarning ularga ko'rsatadigan ba'zi bir qo'shtirnoq ichidagi munosabati ularni kunlik stressga ega bo'lishiga sabachi bo'ladi desam adashmayman. Shu kabi

stresslarning soni oshib ketishi tufayli pedagoglar bu kasbdan qaysidir ma'noda ko'ngli soviydi va bu holat esa ularni kun

kelib pedagoglik kasbni tashlab ketishiga majbur qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K.B.Qodirov "Kasb tanlashga tayyorlashning psixologik jihatlari va professional loyihalar" Toshkent, 2001-yil. – 36 b
2. Pedagogik munosabatlarda o'qituvchilarda kasbiy so'nish jarayonining shakllanishiga stressning ta'siri Botirova Dilafro'z Bozorovna Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi.
3. PLAG - Plagiarism. Studies. Artificial Intelligence 5-b.
4. Shakarboyeva S. Bo'lajak o'qituvchilarda o'z istida ishlash faoliyatini tarbiyalashning ijtimoiy – psixologik xususiyatlari //Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii. – 2022-yil. – T. 2. – №. 6
5. K.D.Ushiniskiy Tanlangan pedagogik asarlar/Inson ta'lim predmeti sifatida. Pedagogik antropologiya tajribasi (1861). - M.: RSFSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1945. - B.475.
6. Abdulakimovna, S. S. (2021). O'qituvchilarning o'zini-o'zi rivojlanishi kasbiy kompetentlikni oshirish. Jahon ijtimoiy fanlar xabarnomasi, 3(10), 58-60.
7. Shakarboyeva S. Bo'lajak o'qituvchilarda o'z ustida ishlash faoliyatini tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik jihatlari //Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii. – 2022-yil. – T. 2. – №.
8. PLAG - Plagiarism. Studies. Artificial Intelligence 20-b.